

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ILM MAZMUNLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

Termiz davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri

E-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada frazeologik birliklar ustida ilimy tadqiqot olib borgan tilshunoslarning tadqiqotlari nazariy tahlil qilingan hamda ilm leksemasining izohli lug‘atlarda berilgan ta’riflari tahlil qilingan. Ilm leksemasining frazeologik birliklarda ifodalanishi faktik misollar bilan tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birlik, lingvokulturologiya, leksema, ilm leksemasi, leksikologiya.

СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЗНАЧЕНИИ НАУКА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Нармуратов Зайниддин Раджабович

Заведующая кафедрой английского языка и литературы Термезского
государственного университета

E-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

Аннотация. В данной статье теоретически проанализированы исследования лингвистов, проводивших научные исследования фразеологизмов, а также проанализированы определения лексемы науки, данные в толковых словарях. На фактических примерах анализируется выражение лексемы наука во фразеологизмах.

Ключевые слова: фразеологизм, лингвокультурология, лексема, лексема науки, лексикология.

COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE MEANING OF SCIENCE IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

Head of the Department of English Language and Literature, Termez State
University

E-mail: zayniddin.tersu@mail.ru

Annotation. *This article analysis of researches in linguists who conducted scientific research on phraseological units were theoretically analyzed and the definitions of the lexeme of science given in explanatory dictionaries were analyzed. Expression of the lexeme of science in phraseological units is analyzed with factual examples..*

Key words: *phraseological unit, linguistic culture, lexeme, lexeme of science, lexicology.*

KIRISH.

Frazeologik birliklarni o'rganish o'zbek va ingliz tillarining leksik fondini boyitishdagi muhim manbalardan sanaladi. Frazeologik birliklarni har tomonlama chuqur o'rganish til frazeologiyasining ochilmagan qirralarini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, biz ham o'zbek va ingliz frazeologiyasini har tomonlama tadqiq qilishga, ya'ni leksik, semantik-strukturaviy va lingvomadaniy jihatdan o'rganishga harakat qildik. Chunki, frazeologiya lingvistikaning boshqa tarmoqlari bilan keng va har tomonlama aloqadadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Frazeologik birliklar haqida tadqiqotchi T.Bushuy va Sh.Safarovlar "Hozirgi vaqtda frazeologiya muammolari tilshunoslarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Zero, til madaniyati, eng avvalo, ilmiy xulosalar va ijtimoiy amaliyot natijalari asosida o'rnatilgan, lisoniy fikrlashning aniqligini ta'minlaydigan til normalari, uning lug'at boyligi, frazeologik zaxirasidan iboratdir" [2] deb ta'kidlaydi. Rus tilshunosligida frazeologik birliklar bilan tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab shug'ullanib kelishmoqda. Jumladan, M.V.Lomonosov rus adabiy tili lug'ati rejasini tuzar ekan, bunda so'zlar bilan bir qatorda "xalq (Rossiya) maqollari", "frazeslar" va "idiomatizmlar" o'z ifodasini topishi lozimligini alohida ta'kidlagan edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillarida ilm mazmunli frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahliliga bag'ishlangan bo'lib, mavzuni to'liqroq

yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Ma'lumki, frazeologiya milliy tillar leksikologiyasining alohida tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillaridan buyon o'rganib kelinmoqda. Frazeologiya haqidagi nazariy ta'limotning yuzaga kelishi shveysariyalik fransuz olimi Sharl Balli nomi bilan bog'liq. U tildagi turg'un birikmalarni chuqur o'rganish zarurligini birinchi bo'lib ilmiy asosladi va o'zining frazeologik konsepsiyasini yaratdi. [8]

Frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo'limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo'lib u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo'limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: "Leksikologiya so'zlarning leksik ma'nolarini, morfologiya so'zlarning gramatik ma'nolarini, sintaksis esa so'z birikmalarining grammatik ma'nolarini o'rganadi. Ammo alohida olingan, ko'chma ma'noli so'z birikmalarining, individual ma'nolarini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limiga ehtiyoj sezilmoqda". U tilshunoslikda frazeologiya ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo'lim ekanligini ta'kidlab o'tgan tilshunoslardan biridir. [11]

B.A. Larin Polivanovdan so'ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo'limi sifatida o'rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. "Frazeologiya tilshunoslik bo'limi sifatida hali "yashirin rivojlanish bosqichida" u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo'lgani yo'q. Ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba'zan leksikografiya, ba'zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir emas" deb ta'kidlab o'tgan. [10]

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov ham ko'rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o'z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr

qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatda tan olinmadi. Chunki Vinogradov frazeologiyani keng planda tahlil qilgan bo'lib, uning frazeologiyaga oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy so'z birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi. Umuman V. V. Vinogradov tilda frazeologik birliklarni alohida belgilashni taklif qilmagan, frazeologik birliklarni so'zlar bilan haddan ortiq yaqinligini hisobga olgan holda, u o'zining teoriyasini so'zning grammatik tahlili doirasiga kiritgan. [9]

A.E.Mamatov o'z ishida frazeologik normaning nazariy va amaliy muammolarini yaxlit holda o'rtaga olib chiqdi. Olimning xulosasiga ko'ra, "Frazeologik norma – bu nutq amaliyotida mustahkamlangan, an'anaviy izchil, bir tipli va teng baholi bo'lgan frazeologizmlarning qo'llanishi, ma'lum davrda til jamoasi tomonidan ma'qul deb qabul qilingan va to'g'ri hamda namunali deb anglangan til hodisasidir". [3]

Jahon tilshunosligida frazeologik birliklar tadqiqi uzoq davrga borib taqaladi. Va bu tadqiqotlarda frazeologik birliklar haqida keltirilgan qarashlar bir-birini to'ldirib, ba'zan esa bir-biriga zid fikrlar ham uchrab turadi. Biz esa ushbu maqolamizda ingliz va o'zbek tillaridagi idiomalarni chog'ishtirib tadqiq etib, ularning o'xshash va farqli tomonlarini misollar asosida yoritib berishga harakat qildik. Z.M.Ma'rufov tahriri ostida tayyorlangan ikki tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ilm leksemasi arabcha so'z bo'lib, quyidagicha izohlanadi: Ilm arabcha so'z bo'lib, bilim; fan; nazariya.

1. O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Shariat ilmi. Dunyoviy ilmlar. (Jamolboy aka, dini islomni qo'ldan bermasdan..zamon ilmlarini o'qilsa, zarar qilmaydi.)
2. Ish – faoliyatining ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi; fan. Ilm va hunar. Ilm va ma'rifat. Ilm va san'at. (Yangi maktablar ochib, Qur'oni karim va boshqa darslar bilan birga jug'rofiya, tarix, hisob kabi ilmlarni ham ta'lim beraylik).
3. Ish-faoliyatining ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. (Islim barlos – sodda, dilovar, ov va qush ilmining piri). [4]

Ingliz tilining mashhur “Oxford Advanced Learners Dictionary” lugʻatiga koʻra, science leksemasi knowledge about the structure and behaviour of natural and physical world, based on facts that you can improve for example by experiments: new development in science and technology (biror bir narsa haqidagi bilim qaysiki siz uni mukammallashtirishingiz mumkin boʻlgan) the study of science (biror bir fanni oʻqish) kabi maʼnolarni ifodalaydi. [5]

Ilm haqida yuqoridagi lugʻatlarda berilgan taʼriflar va izohlar turlicha boʻlganligi bilan mazmun-mohiyati bilan bir biriga bogʻliq ekanligi koʻrinib turibdi. Shuningdek, ingliz va oʻzbek tillarida ham science/ilm leksemalari turli shaklda oʻz leksik fondidan kelib chiqib qoʻllanishiga qaramasdan ushbu atamalarning mazmuni hamohangdir. Frazologik birliklarida science/ilm leksemalari ifodalanishiga eʼtiborimizni qaratsak, ingliz xalqining Under one’s belt [Example: Jim has to get a lot of knowledge under his belt before the trip (Example, Jim sayohatga borishdan oldin koʻp bilim va koʻnikmaga ega boʻlishi lozim)] idiomasi “The first uses of the phrase with this meaning are traced back to the 19th century. The idiom under your belt refers to something that you have learned, mastered, or achieved and that might be an advantage for you in the future”. Ushbu idiomaning kelib chiqishi XIX asrga borib taqaladi va kelajakda siz uchun foydali boʻladigan ilmlarni oʻrganish maʼnosida qoʻllaniladi. Y.Pinxasovning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili: Leksikologiya va frazeologiya” nomli kitobida keltirilgan har bir usta teshani oʻz tomoniga urar [7] iborasida usta leksemasi qoʻllanilgan. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”ga koʻra, Usta – 1) kasb-hunar egasi; malakali mutaxassis: pichoqchi usta, miskar usta, kashtadoʻz usta va hokazolar; 2) kasb-hunar, ilm va shu kabilarni oʻrgatuvchi, muallim, ustoz. [1]

Yuqorida izohli lugʻatda berilgan taʼrifga koʻra, usta leksemasining ikkinchi maʼnosi ustoz maʼnosida kelishi qayd etilgan. Oʻzbek tilining har bir usta teshani oʻz tomoniga urar iborasi har bir ustozning oʻqitish, oʻrgatish oʻz usuli bor degan maʼnoni izohlab kelmoqda. Chunki oʻzbek xalqida ustoz ulugʻ zot hisoblanadi. Xalqimiz tomonidan ustozlar haqida: “Ustoz otangdek ulugʻ”, “Ustozi qanday – shogirdi shunday”, “Ilm ustoz – ota maqomida, hunar ustoz – ona maqomida”,

“Ustozning dong‘i shogirdi bilan” kabi maqollar ham yaratilgan. Ushbu maqollar orqali ham o‘zbek xalqi tomonidan ustozlarga e’tibor va hurmat kuchli ekanligi kuzatishimiz mumkin.

XULOSALAR.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, har bir tilning frazeologik qatlami o‘sha til millatining madaniyati, urf-odat va yashash tarzidan kelib chiqib shakllanadi va o‘z tilini boyitadi.

Adabiyotlar

1. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. va boshqalar. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent, 2006. – B.42.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 55
3. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – B. 218.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. // www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 27-195.
5. Oxford Advanced Learner’s Dictionary 9th edition Oxford university press, 2015.–P.490 -1348.
6. Palmer F.R. Semantics. – Cambridge University Press,1981. – P.75-82.
7. Pinxasov Y. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Lesikologiya va frazeologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1969. – 80 b.
8. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва, 1961. – С. 98.
9. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л.,1946. – С.61.
- 10.Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Л., 1956. — № 198. – 201-202 с.
- 11.Поливанов. Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов.VI, – Л.,1928. – С.60.